

**O'ZBEKİSTONDA TADBİRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA  
IMTIYOZLAR: YANGI QONUNLAR VA TASHABBUSLAR****Kutlimuratova Dilfuza Sharjau qizi***Berdaq nomidagi QDU Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar yaratish borasidagi so'nggi yillarda amalga oshirilgan yangi qonunlar, tashabbuslar va iqtisodiy islohotlar tahlil qilinadi. O'zbekiston hukumati kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, raqobatbardosh iqtisodiy muhit yaratish, va tadbirkorlik faoliyatini soddalashtirish maqsadida bir qator qonuniy va iqtisodiy chora-tadbirlarni joriy etdi. Ushbu maqolada soliq siyosati islohotlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus hududlar yaratish, shuningdek, raqamlı transformatsiya jarayonlari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tadbirkorlik, O'zbekiston iqtisodiy islohotlari, soliq siyosati islohotlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznes, erkin iqtisodiy zonalar, Investitsiyalarini jalb qilish, raqamlı transformatsiya, maxsus iqtisodiy hududlar, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, biznes muhitini yaxshilash, soliq imtiyozlari, grantlar va kreditlar, innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikni raqamlashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi, xalqaro hamkorlik, tadbirkorlar huquqlari.*

O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiy rivojlanishining asosiy manbalaridan biri sifatida tadbirkorlikni rivojlantirishni belgilagan.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy sshaxslardir. Davlat organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonunchilikda man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo'lishi mumkin emas.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida hukumat tomonidan turli qonunlar, tashabbuslar va imtiyozlar ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari O'zbekistonni biznes uchun qulay muhit yaratishda muvaffaqiyatl yo'lga qo'ygan. Ushbu maqolada O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar yaratish yo'lidagi yangi qonunlar va tashabbuslar tahlil qilinadi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati 2016-yildan boshlab keng qamrovli islohotlar asosida shakllandi. Bu davrda hukumatning asosiy maqsadi biznesni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xususiy sektorni rag'batlantirish, va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Yangi qonunlar, qoidalar va dasturlar tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, va iqtisodiy faoliyatni osonlashtirishga qaratilgan.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun ko'plab iqtisodiy imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash

dasturlari va xususiy sektor uchun yaratilgan erkin iqtisodiy zonalar tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri soliq siyosatining islohoti hisoblanadi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida soliq stavkalari kamaytirildi, soliq imtiyozlari kiritildi va soliq to'lovchilar uchun ma'lumot va yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirildi. Soliq islohotlari, shuningdek, "Elektron soliq xizmatlari" tizimini joriy etish orqali soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish va soliq hisoblarini elektron tarzda yuritish imkoniyatlarini taqdim etdi. Bu tadbirkorlarga huquqiy va moliyaviy ko'mak ko'rsatishni yengillashtirdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy yordam muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni qabul qilindi. Shu bois "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma orqali tadbirkorlar o'z bizneslarini boshlash yoki rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar va grantlar olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bundan tashqari, O'zbekistonda investorlarni jalb qilish maqsadida, turli xil moliyaviy instrumentlar, shu jumladan, "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi. Bu aholining bandligini ta'minlash va daromad topishga qaratilgan faoliyatini moliyaviy qo'llab -quvvatlash borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida: 2024 -yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari (keyingi o'rnlarda - dasturlar) doirasidagi loyihamar avvalgi yillarda ajratilgan kreditlarning so'ndirilishi va qo'shimcha mablag'lar yo'naltirilishi hisobidan moliyalashtirilishi va shu bilan birga bir qator dasturlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun erkin iqtisodiy zonalar va maxsus iqtisodiy hududlar tashkil etildi. Ushbu zonalarda tadbirkorlar soliqlardan imtiyozlar olishadi, biznesga tegishli tartibga solish va ruxsatnomalar soddalashtirilgan. O'zbekistonda 12 ta erkin iqtisodiy zona tashkil etilgan bo'lib, ularda yengilliklar va rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar qo'llanilmoqda.

Byurokratik to'siqlar tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, so'nggi yillarda O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Tadbirkorlar uchun qonuniy to'siqlarni bartaraf etish, ruxsatnomalar va litsenziyalar tizimini soddalashtirish, ko'plab sohalarda elektron tizimlarni joriy etish tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bu jarayonda "Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora - tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni asosida huquqiy maslahatlar va yordam tizimlari takomillashtirildi.

Zamonaviy tadbirkorlik dunyosi raqamlı texnologiyalar va innovatsiyalarga tayanadi. O'zbekistonda raqamlı iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda davlat xizmatlari va tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, davlat organlarining ish faoliyatini

soddalashtirish va tizimlarni avtomatlashtirish orqali tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratildi. “Elektron hukumat” dasturi orqali tadbirkorlar ko’plab xizmatlarga elektron tarzda murojaat qilishi mumkin.

O’zbekiston tashqi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida, xalqaro tashkilotlar, donorlar va xalqaro kredit agentliklari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. Xalqaro yordam va investitsiyalarni jalb qilish O’zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo’shamoqda.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistonda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan yangi qonunlar va tashabbuslar iqtisodiy rivojlanishga, xususan, kichik va o’rta biznesning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatdi. Davlat tomonidan ko’rsatilayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy qo’llab-quvvatlash, erkin iqtisodiy zonalar va innovatsion tashabbuslar tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va raqamlashtirish jarayonlari biznesni yanada samarali va raqobatbardosh qilishga yordam bermoqda. Shunday qilib, O’zbekistonda tadbirkorlik uchun yaratilgan sharoitlar va imtiyozlar, davlat va xususiy sektor hamkorligida mustahkam iqtisodiy poydevor yaratishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 09.06.2022 yildagi PF-150-son.

“Tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash davlat jamg’armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”

2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 19.06.2017 yildagi PF-5087-son.

“Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora -tadbirlar to’g’risida”

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2024 yildagi PQ-149-son.

“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”

4.O'RQ-328-coh 02.05.2012. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish haqida <https://lex.uz/docs/-2006789>